

PRINCIPLES OF RENEWAL IN CONTEMPORARY UZBEK POETRY

Zebo Zokirovna SABIROVA

Doctor of Philosophy in philology (PhD), Senior Teacher
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Tashkent, Uzbekistan

ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDA YANGILANISH TAMOYILLARI

Zebo Zokirovna SABIROVA

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Toshkent, O'zbekiston

ПРИНЦИПЫ ОБНОВЛЕНИЯ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ

Зебо Зокировна САБИРОВА

Доктор философских наук по филологии (PhD), старший преподаватель
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Ташкент, Узбекистан zebonur2017@gmail.com

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Sabirova Z. Z. Zamnaviy o'zbek she'riyatida yangilanish tamoyillari.// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 5. — B. 229-238.

<https://doi.org/10.36078/1733292206>

Received: August 27, 2024

Accepted: October 17, 2024

Published: October 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. The study discusses Uzbek poetry, its modern subject scope and the artist's skill in creating images. The research deals with the issues of a new expression of philosophical views, individuality, and artistic interpretation of the creative style in today's Uzbek poetry in connection with Eastern philosophy and creative art. The aim of the study is to analyze the philosophical view and modernist interpretation in modern Uzbek poetry, the creative style, the nature of the image, the manifestation and formation of artistic and aesthetic features, and the growth of the creative way of thinking. The issue of figurative-philosophical imagery in Uzbek poetry, the composition of the poem, the scope of expression and thematic direction; Eastern philosophy in poetry, philosophical-social, symbolic-figurative, folk tones, the attitude of the creator to reality and the spiritual world were studied. The study states that in modern Uzbek poetry in the last quarter of the XX century and the first stage of the XXI century, along with the poet's creative mood, the style of creating an image was somewhat updated, the meaning understood from the individuality inherent in the nature of the image acquired a special feature, carrying a certain meaning, conveying it to the reader's thinking at a proper level, and at the same time requiring deep thinking. The history of the globalization phenomenon in modern poetry, its impact on the literary process, the fate of national literature and its viability, the impact of the phenomenon on Uzbek poetry, the issue of the balance of form and content in modern poetry are studied as a literary-aesthetic category.

Keywords: fiction; essence; renewal; artistic thought; modern Uzbek poetry; imagery; scope of the subject; lyrical digression; modernism; modernist tone; style.

Annotatsiya. Maqolada zamnaviy o'zbek she'riyati xususida so'z yuritilib, o'zbek adabiyotshunosligida she'riyatning mavzu qamrovi, ijodkorning obraz yaratish mahorati o'rganilgan. She'riyatni anglagan

shoir “chin she’r yurak sezgilarini ko‘rsatmakligini, vazn va qofiya esa uning bezagi ekanligini“ biladi. Shunday ekan, poeziya dunyoning aksi ham, uni o‘rganish yo‘li ham emas, balki dunyoni yaratishdir. Ammo bugungi she’riyatda modernizmning ta’siri kuchli ekan, u bevosita chuqur mushohada talab etadi. Shu bois ham ushbu tadqiqot ishida bugungi o‘zbek she’riyatida falsafiy qarashlarning yangicha ifodasi, individuallik xususiyati, ijodkor uslubining badiiy talqini masalasi Sharq falsafasi hamda ijodkor badiiyati bilan bog‘liqlikda tadqiq etildi. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida falsafiy qarash va modernistik talqin, ijodkor uslubi, obraz tabiat, badiiy-estetik xususiyatlarning namoyon bo‘lishi, shakllanishi, ijodkor tafakkur tarzining o‘sib borishi asosida tahlilga tortish ishimizning maqsadi sanaladi. O‘zbek she’riyatdagi majoziy-falsafiy obrazlilik masalasi, she’r kompozitsiyasi, ifoda ko‘lami va mavzu yo‘nalishi; she’riyatda Sharq falsafasi, falsafiy-ijtimoiy, ramziy-majoziy, xalqona ohanglari bilan ijodkorning voqelikka munosabati va ruhiy olami bog‘liq tarzda tadqiq etildi. Shuningdek, o‘rganilgan ilmiy muammo yuzasidan tegishli xulosalar chiqarildi. Shu jumladan, maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatida XX asrning so‘nggi choragi va XXI asrning ilk bosqichida shoirning ijodiy kayfiyati bilan birga obraz yaratish uslubi ham bir qadar yangilanganligi, obraz tabiatiga xos individuallikdan anglashilgan ma’no alohida xususiyat kasb etib, muayyan ma’no tashuvchi, uni kitobxon tafakkuriga anglashinarli darajada yetkazuvchi va ayni damda teran fikrlashni talab qilganligi xususida so‘z yuritiladi. Zamonaviy poeziyada globallahuv hodisasining tarixi, uning adabiy jarayonga ta’siri, milliy adabiyotlar taqdiri va ularning yashovchanlik xususiyatlari, hodisaning o‘zbek she’riyatiga ta’siri, zamonaviy she’riyatda shakl va mazmun mutanosibligi masalasi adabiy-estetik kategoriya sifatida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy adabiyot; mohiyat; yangilanish; badiiy tafakkur; zamonaviy o‘zbek she’riyati; obrazlilik; mavzu ko‘lami; lirik chekinish; modernizm; modernistik ohang; uslub.

Аннотация. В статье говорится о современной узбекской поэзии, ее анализе в узбекском литературоведении, а также способности художника создавать образы. Поэт знает, что «истинная поэзия показывает чувства сердца, а метр и рифма — ее украшение». Поэтому поэзия — это не отражение мира и не способ его изучения, а створение мира. Но, поскольку в сегодняшней поэзии сильно влияние модернизма, он требует прямого и глубокого наблюдения. В статье вопрос о способах современного выражения философских взглядов, индивидуальности, художественной интерпретации стиля художника исследовался в связи с восточной философией, философско-социальными, символико-метафорическими, народными мотивами, отношением творца к действительности и духовному миру. В статье также было обращено внимание на то, что в последней четверти XX века и начале XXI века несколько обновилась манера создания образов на основе специфики, заложенной в характере изображения. Рассмотрена история влияния глобализации на современную поэзию, ее воздействие на литературный процесс, судьбы национальных литератур и их жизнеспособность, влияние этого явления на узбекскую поэзию. Вопрос баланса формы и содержания в современной поэзии исследуется как литературно-эстетическая категория.

Ключевые слова: художественная литература; обновление; художественное мышление; современная узбекская поэзия; образность; масштаб темы; лирическое отступление; модернизм; модернистский тон; стиль.

Kirish

Adabiyot zamon bilan hamnafas ekan, doimiy yangilanish jarayonini kechiradi. Adabiyot o‘z davrining oynasi hisoblanadi. “She’riyatda davr tushunchasining o‘ziga xos xususiyati bevosita inson shaxsi bilan uyg‘unlikda tajassum topdi. Garchand, davr tushunchasi orqali insoniyatning o‘tmishi, hoziri, kelajagi yoki inson umrining mazmuni, mohiyati to‘g‘risida gap borsa-da u, avvalo, hayot, voqelik va inson shaxsiyati bilan aloqadorlikda namoyon bo‘ladi” (15, 9). Adabiyot inson bilan tutash taqdir ekan, uning yaratilishida ijodkor mehnati birinchi o‘rinda turadi. Endi mustaqil fikrlaydigan inson “...atrofdagi narsa-hodisalar borasida birovning og‘ziga qarab o‘tirmay, o‘zicha munosabat bildirishida yuz ko‘rsatadi” (19, 4).

Albatta, adib yaratayotgan asarida hayotning ma’lum bir qiyofasini shakllantirishi bilan birga, o‘z his-tuyg‘ulari, tafakkuri, tasdig‘i yoki inkori kabi kechinmalarni bayon qiladi. Bunda, albatta, bugunning g‘oyalari, albatta, yangicha o‘xshatishlar, majozlarga asoslangan fikrlar, ya’ni modernning ham kurtaklari ko‘zga tashlanadi.

Badiiy-estetik tafakkurdagi evrilishlar bir necha avlod izlanishlarining samarasidir. “Shukrullo, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfidan Bahrom Ro‘zimuhammad, Faxriyor, Ulug‘bek Hamdam, Iqbol Mirzogacha; Zulfiya, Oydin Xoziyeva, Gulchehra Nur, Halima Xudoyberdiyevadan Qutlibika, Halima Ahmedova, Farida Afro‘z, Zebo Mirzo, Go‘zal Begim va Xosiyat Rustamovagacha bo‘lgan bir necha avlod ijodkorlari bugungi poetik jarayon tarixini yaratmoqda” (14, 14). Zamonaviy badiiyat namunalari tarixni, shaxs va jamiyat psixologiyasini tushunish, o‘rganish va estetik baholashdagi mutlaqo o‘ziga xosligi bilan avvalgi bosqichlardagi qarashlardan farq qiladi. Ijodiy izlanishlardagi mustaqil yo‘nalishlar badiiy-estetik tafakkur takomilining yangi bosqichi boshlanishidan dalolat beradi.

Asosiy qism

Darhaqiqat, milliy mafkura va ma’naviyat, madaniyat masalalariga e’tibor ortgan bu davrda adabiyotimiz tarixi va zamonaviy adabiy jarayonni, uning buyuk namoyandalari ijodiy faoliyatini yanada chuqur va yangicha qarashlar asosida o‘rganish, tadqiq etish, tarixiy-badiiy merosimizni qayta idrok etish, “hozirgi modern she’riyatning badiiyatini ta’milagan omillarni tekshirish” (20, 7) zarurati taqozo etmoqda. Bugungi kun kishisi qalbida milliy g‘urur, o‘zlikni anglash tuyg‘ularini kamol toptirishda adabiyot so‘z san’atkorlari merosi, ijodiy faoliyatlari, shaxsiyatining o‘rni beqiyos. Shunday so‘zki, “fikrni ifoda qilish uchun so‘z qurish, so‘z emas, san’atkorona, ya’ni shundog‘ so‘zki, aytmoqchi bo‘lgan fikringizning ifodasi uchungina maxsus yaratilgan bo‘lib, yasama bo‘lmasin” (12, 173).

Istiqlol davri she’riyati haqida so‘z borarkan, uning ifoda usuliga ko‘ra ham turli-tumanligi e’tirof etiladi. Ularning asosiyilari sifatida adabiyotshunoslar tomonidan quyidagilarini sanab o‘tilganligini ko‘rish mumkin:

1. An’anaviy barmoq.

2. Xalqona ohang.
3. Aruz.
4. Modernistik ohang (yoki ohangsizlik).
5. Sinkretik (qorishiq) ifoda usuli.

Istiqlol davri she'riyati yuqorida ta'kidlanganidek, "asrlar davomida tinimsiz o'zgarib — yangilanib kelayotgan o'lmas jarayonning qonuniy bir uzvi bo'lib, o'zida juda katta va ko'pdan-ko'p tajribalarni jamlagan g'oyat murakkab va beba ho san'atimizning bir bo'lagidir" (15, 9). U shunisi bilan avvalgi davrlarga ham o'xshaydi, ham o'xshamaydi, deya izohlaydi adabiyotshunos U. Hamdam. O'xhash jihatni sifatida ijod mahsuli bo'lgan she'r o'z davri she'riyatidan o'sib chiqqan hamda o'ziga ularning eng yashovchan unsurlarini singdirganidadir. Farqli jihatini esa dunyoga keng ochilgan jamiyatning va mana shu jamiyat a'zosi bo'lgan shoirning ozod tafakkurini o'zida mujassam ettirganida ko'rish mumkin.

Yangilanish bosqichida o'zbek she'riyatining ko'lami yanada kengaydi. Gap bu yerda mavzu va muammolar kengayganida emas, balki ana shu mavzu va muammolarning ifoda tarzi, badiiy tahlil etish san'ati, uslublar rang-barangligi, xalq yo'lidagi baxshiyona, xalq dostonlari, termalari yo'lidan tortib, masnaviy, g'azal; G'arb adabiyotining sonet va modern yo'nali shidagi shakllardan qadim yapon she'riyatidagi tanka, xokku shakllaridagi asarlargacha paydo bo'ldi. To'g'ri, bu shakllarning aksari she'riyatimizda ilgarigi bosqichda ham mavjud edi. Biroq bu shakl va yo'nali shidarda endi yangi davr muammolari, istiqlol davri kishisining ichki dunyosi va intilishlarini tasvirlashga qaratilgan yangi obrazlar, yangi tasvir vositalari, yangi g'oyalar o'z ifodasini topa boshladi. Adabiyotshunos I. G'afurov o'zbek adabiyotidagi bu holatga alohida to'xtalib, shunday deydi: "O'zbekistonda she'riyat yashashda davom etdi. "Sen" va "Men" o'rtasidagi mangu bahs yanada qizib — endi bu narsalarni "intimlik", "torlik" deb atash hech kimning ham xayoliga kelmaydi — yangicha bir shiddat kasb etdi. Ayniqsa, "Men" va "Men" o'rtasidagi — o'zi bilan o'zi olishuv — o'zi bilan o'zi tortishuv, jang har qachongidan ham tug'yonliroq tus olmoqda. Bu juda tabiiy. Odamlarda o'zini tanish, anglash va uning asosida o'zini kashf etish she'riyatda juda xarakterli hodisaga aylanayotganini kuzatish mumkin... O'zini yangi bayonda ko'rish; qalbning yangi ufqlariga talpinish; yangi najot qal'asini axtarish va topish; ruhoniyatning istiqlolgacha Huvaydo va So'fi Olloyordan keyin kurk bo'lib yotgan ladunniy maydonlariga ohista qadam qo'yish..." (3, 82). Demak, bundan ayonki, ijodkor yangilanishga hamisha tayyor bo'ladi va uni kutadi...

O'zbek adabiyotiga modernning kirib kelishi ham, chinakamiga yangilanish bo'ldi, desak arziydi. Sababi mustaqillikka qadar adabiyot ijtimoiy turmush, mehnatkashlar hayoti, "qora" tasvirlarni kamalak jilosiday ifodalashga majburlanib kelingan. Ammo istiqlol rostakamiga adabiyot istiqlol bo'ldi. Adabiyotning tub negizi madaniyatga, ma'naviyatga borib taqalar ekan, xo'sh, nega endi u o'zlikni anglashga xizmat qilmasligi kerak? To'g'ri, qaysidir ma'noda ijtimoiy hayotning markazida inson turganligini e'tiroz qilib bo'lmaydi, ammo uning ko'ngil deb atalgan sandig'i "qulfligicha zang bosmog'i" kerak, xo'sh, nega? Aynan modernizm inson ko'ngliga quloq osdi: dard cheksa, darddosh bo'ldi, baxt kelsa, baxtdosh.

Shu o'rinda adabiyotshunos Umarali Normatovning modernizm va uning XX asr jahon adabiyotidagi mavqeyi, o'zbek adabiyotidagi ko'rinishi, tadriji xususidagi fikrlariga to'xtalamiz: "Modernizm XX asr jahon adabiyoti, san'atida muhim hodisa, uning asl qiyofasini belgilovchi omil ekani, M. Prust, F. Kafka, J. Joys, J. Eliot, E. Paund, A. Kamyu kabi yangi oqim, yo'nalishlarga mansub ijodkorlar so'z va so'z san'ati rivojida butunlay yangi davr ochgani hech kimga sir emas. Jahonning turli mintaqalarida ularning minglab maslakdoshlari, izdoshlari, davomchilar bor. Modernizm shunchaki adabiy-badiiy eksperiment-tajriba, shakliy-uslubiy izlanish natijasi emas, balki u dunyoni, insonni yangicha ko'rish, tushunish, anglash, anglatishning o'ziga xos falsafiy-nazariy asoslariga ega... Bu kabi ijodkorlarning g'oyalari yangicha adabiy oqim yo'nalishlari uchun zamin bo'lib xizmat qildi" (2, 119).

Adabiyotshunos D. Quronov modernizmning adabiyotda oqim sifatida paydo bo'lishini XIX asr oxirida va XX asr boshlarida ommalashgan termin, san'at va adabiyotda dekadansdan keyin maydonga chiqqanligini ta'kidlab: "...neorealistik oqimlarning umumiy nomi sifatida tushuniladi... Modernizmga xos umumiy xususiyatlardan biri shuki, u obyektiv voqelikning tasviri o'mniga uning ijodkor tasavvuridagi badiiy modelini yaratishni maqsad qiladi" (11, 176), ya'ni ijodkor tashqi olamdan ko'ra o'z ichki olamini aks ettiradi. "Modernizm olam hodisalari va odamga munosabat, ulardagi turli-tuman holatlarni izohlash hamda tasvirlashda o'ziga xoslikka intilib, klassik yondashuv yo'sinini inkor etish yo'lidan borgan g'oyat ko'p tarmoqli falsafiy-estetik hodisadir" (16, 9), deydi adabiyotshunos Q. Yo'ldashev. Fikrimizni yana modernism haqidagi fikr bilan dalillasak: "...modernizm olamni xaos deb bildi va undan qochdi. Tashqi dunyoda go'zallik yo'q, uni botindan qidirish kerak" (4, 252) ligini yoqlab chiqdi va o'z oldiga "insonga muhabbatni" vazifa qilib belgiladi.

"Poeziya — voqelikka taqlid qilish emas yoki u voqelikning tafsiri ham emas, poeziya o'z-o'zicha voqelikdir. Voqelik bo'lganda ham amaldagi voqelikdan ortiqroq darajadagi voqelik" (5, 367) ekanligini hisobga olsak, shoir tomonidan she'rning ijod qilinishi, qay yo'sinda qog'ozga tushishi uning o'ziga bog'liq.

Modernizm adabiy jarayonda bexosdan paydo bo'lgan emas. A. Qodiriyning "O'tkan kunlar" asariga epigraf sifatida olingan: "Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlidir", deya aytlishi bejiz emas. Shu sabab adabiyotda mayjud metodlarning tarkibiga bir nazar solamiz. Adabiyotda bir necha ijod usullari mavjud: romantizm, realizm (lot. "moddiy, hayotiy"), klassitsizm (lot. "namuna, ibrat"), sentimentalizm (frans. "hissiyot, his qilish") va modernizm (frans. "yangi, zamonaviy") kabilar. Bunda m dernizmni yaxlit vujud deb hisoblasak, unda xayol va hayot qorishmasi ham, namunalik darajasi va hissiyot ham yetarlicha, modernning inson qalbi bilan bog'liqligini ko'rish mumkin. Adabiyotshunos U. Hamdam ta'kidlaganidek: "...Rost, adabiyot — ko'ngil adabiyotidir! U kashf etadi. Biroq qandaydir tog'-u toshlar qa'rida berkinib yotgan ma'danlarni emas, balki inson qalbida yashirinib yotgan olamlarni ochadi. Chindan tushungan odam uchun eng qimmatli borliq — uning o'z olami..."dir (2, 15).

Bugungi kun adabiyoti yangi o‘zbek adabiyoti deb qaralar ekan, demak, bugungi she’riyat ham yangicha akslanadi. 20-yillarda Cho‘lponning “Uyg‘onish” (1922), “Buloqlar” (1923), “Tong sirlari” (1926) kabi to‘plamlari adabiy-estetik asos sifatida ahamiyatga ega edi. Professor O.Sharafiddinov ta’biri bilan aytganda, “Mubolag‘asiz aytish mumkinki, o‘sha davr adabiy hayotida katta adabiy hodisa bo‘lgan bu to‘plamlar yangi o‘zbek she’riyati uchun tom ma’noda poydevor bo‘ldi” (8, 133).

Adabiyotshunos Q.Yo‘ldoshev: “...Chinakam badiiy asar doimo undan oldin yaratilganiga o‘xshamaslikka intilish natijasi o‘larоq dunyoga keladi. Fikr, zavq va didning yangilanishi badiiy ifoda tizimini ham to‘la o‘zgartirishni taqozo etadi” (17, 9). Adabiyotda o‘zgarishlarning doimiyligidan boshqa o‘zgarmas narsa yo‘qdir. ”Modern adabiyot inson didi va qarashlaridagi o‘zgarishlar ifodasi o‘larоq yuzaga keladi” (11, 151), deya fikr bildiradi. Demak, davr o‘tar ekan, inson badiiy didi ham o‘zgaradi, yuksaladi; dunyoqarash yangilanar ekan, yangilikka o‘chlik ortadi. Ammo bu qarashlarni har kim har xil talqin etadi. Ko‘philik adabiyotshunoslар talqinida modernizm mavhum, ya’ni absurd tushuncha, deb qaraladi. Shu o‘rinda bir narsani ta’kidlash lozimki, mavhumlik, avvalo, tushunmaslikdan kelib chiqadi, bunga esa uni o‘z o‘rnida anglamaslik, mazmuniga aqlan yondashmaslik sabab bo‘lishi mumkin. Buni tushunmoq uchun modernizmning tub ildizlariga nazar solmoq joiz. Chunki uning tomirlarida mumtoz she’riyatning ham suvi bor, hayotiylik nafasi ham ufurib turadi. To‘g‘ri, u qaysidir jihatdan, balki to‘laligicha mavhumdir, ammo uning bor ziynati ham, borligi ham aynan shundadir. Axir nimaningdir borligi uchun nimadir asos bo‘ladi. Q. Yo‘ldoshev bu haqda maqolasida quyidagicha to‘xtaladi: “Shuni ta’kidlab aytish lozimki, absurdni modearnizmga qarshi qo‘yib bo‘lmaydi. Modernizm og‘och bo‘lsa, absurd — uning mevasi. Mevani daraxtga qarshi qo‘yish aqldan emas... Absurd adabiyot, ayrimlar o‘ylaganidek, adabiyotning ma’niszligi emas, balki ma’niszlikning adabiyotidir” (10, 161).

Chindan ham absurd ma’niszlik, lekin hayotiy qonun-qoidalar, tartibotlarning ma’niszligi emas, balki inson umri, uning qismati, urinishlarining mutlaq taqdir oldidagi ma’niszligidir. Shunday ekan, odam qay yo‘ldan borishini o‘zi hal qilganidek, adabiyotga yo‘l- yo‘riq ko‘rsatish shart emas, chunki uning o‘zi yo‘nalishni tanlaydi. Demak, mustaqillik davri o‘zbek she’riyatiga yangilanishlar kirib kelgan ekan, buning o‘ziga xos xususiyatlari adabiyotshunoslар tomonidan quyidagicha aks etadi:

- san’atning ijtimoiy hayotdan uzoqlashayotganligi;
- muayyan qoliplarga tushmaslikka intilayotganligi;
- badiiy yaratiqlarning faqat san’at asarigina ekanligi;
- san’atga o‘yin (mahorat, o‘zgachalik, o‘ziga xoslik — originallik o‘yini) deb qarash mayli kuchayganligi;
- kinoyaga moyillik ortganligi;
- soxta ko‘tarinkilik va sun’iy chaqiriplardan qochayotganligi;
- ifodaning mukammalligiga intilish ortgani (18, 9).

Bu kabi tamoyillar shuni ta’kidlaydiki, modern adabiyot va an’anaviy merosni bir-biriga zidlash va yoki taqqoslash ham emas. Bu

tamoyillar har bir uslubning o‘ziga xos alohida yo‘li borligini, ular muayyan o‘rinlarda tutash yoki alohidalik kasb etajagini ko‘rsatadi. ”Modernizm har bir odamga yangilik bilan birga o‘zlashadigan o‘ziga xoslikdir. Uning mohiyatini doimiy o‘zgarishdagi irratsionalizm: inson ko‘ksida yonib turgan olov tashkil qiladi” (7, 421).

Davr o‘tishi, ijtimoiy ongning o‘sishi, tafakkur bosqichlari yuqorilagani sari bo‘lib o‘tgan voqealarni o‘quvchiga qayta hikoya qilib berish va uning badiiy asar sifatida taqdim etilishi ko‘pchilikni qoniqtirmay qo‘ydi. Bu degani tarixiylikni ifodalash noto‘g‘ri va yoki endi uning keragi yo‘q, degani emas. Chunki tarixiylik tarixga xos xususiyat bo‘lsa, badiiylikning yangicha qarashlar bilan boyitilishi adabiyotning muhim vazifasi hisoblanadi.

Inson yashar ekan, har bir kunidan go‘zallik izlaydi. Mana shu go‘zallikni adabiyotdan — she’riyatdan topmoq bir qadar oson. O‘tgan asrning so‘nggi o‘n yilligi davomida shakllangan “istiqlol she’riyati deb atalgan bosqich” (6, 75) ana shunday go‘zallik yaratgan davr bo‘ldi. Bu davrning istiqlol davri she’riyati deb atalishida ham hikmat bor. Aynan mana shu she’riyat ozodlikni orzulagani, istiqlol davrida yaratilgani, mustaqillikni madh qilgani, ijodkorning o‘z tuyg‘ularini aks ettirgani uchungina emas, kitobxонни ham o‘z ko‘ngliga nazar solmoqqa, uni tushunishga undagani uchun ham istiqlol she’riyati ekanligini aytish joiz.

Mustaqillik davrida his-tuyg‘ularni taftish etish inson ruhiyati, uning olis xotiralari, intim kechinmalarining qirralarini poetik jihatdan o‘rganish ko‘zga tashlanadi. Demak, istiqlol davrining boshlanishi qalbga nazar solmaq ekan, mafkura tazyiqida unutilgan, ammo qalbda, ruhda unutilmagan ma’naviyat tiklandi; ko‘ngil Allah uyi ekan, u ham tozalandi, poklandi.

Istiqlol nazmiga boshdan nazar soladigan bo‘lsak, u ma’lum bir qonuniyat asosida bo‘lmaydi. She’riyat qofiyali va qofiyasiz ham, bir qatorli yoki ikki, undan ortiq misrali ham bo‘lishi mumkin. Mana shunday shakldagi she’rlar istiqlol davri she’riyatida bir qatorni tashkil etadi. Masalan: “Oy bolta” kabi ikki so‘zli, “Go‘rlar qisir - tug‘ishdan qolgan”, “Anorlar dard kabi yorilar” (Faxriyor), “Seni deya — sensiz yashadim” (Ulug‘bek Hamdam) singari bir satrli, “Yer choyshabmas, ko‘ylakdir”, “She’r to‘qiyman o‘rgimchak kabi Muhabbatning tolalaridan” (Faxriyor) kabi.

Bunday satrlar shunchaki so‘zlarni qalashtirishdan tuzilgan emas, balki yuksak saviya bilan bitilgan satrlardir. “Fikr va xayolning samarador bo‘lishi uchun ijodkorda muayyan ijodiy niyat, izchil konsepsiya bo‘lishi kerak. Ijodiy niyat esa u yoki bu darajada o‘zgarishlarga uchragan maqsaddan iboratdir” (13, 86). Istiqlol davrida, ko‘rinib turibdiki, “she’r noziklashuvi, ifoda ingichkalashuvi” o‘quvchidan fikrni jamlab, she’r o‘qishni talab qiladi, deydi bu davr haqida fikrlagan munaqqidlar, unda yuksak intellektual salohiyat ham bo‘lmog‘i kerakligini alohida ta’kidlaydilar. “Shaftoli rang olam nayza uchida, Dunyolari yolg‘on, men o‘ldim chindan” (Rauf Parfi) yoki “Ko‘rib turganim bu — ilon qo‘rqaman, Ko‘rib turganim-ku omon qo‘rqaman, Yomon bilganimdan qo‘rqr edim men, Yaxshi bilganimdan yomon qo‘rqaman” (A.Suyun) singari satrlarda bayon etilayotgan fikrlar “labirint”ini anglamoq uchun ham yuksak saviya zarur bo‘ladi.

Xulosa

She'riyatni anglagan shoir "chin she'r yurak sezgilarini ko'rsatmakligini, vazn va qofiya esa uning bezagi ekanligini", biladi. Shunday ekan poeziya dunyoning aksi ham, uni o'rganish yo'li ham emas, balki dunyoni yaratishdir. Ya'ni chinakam "iste'dod hayotning har bir qirrasidan nafosat topadi, falsafa kashf etadi va hikmat yaratadi. U olam va odam munosabatlarini mutlaqo betakror yo'sinda idrok qiladi. Xarakter tuyg'ulari teranligiga erishish har bir ijodkorning ezgu a'moli" (9, 29). Shunday ekan "qanday mazmunning o'z shakli bor. Shaklning mohiyati — bu so'z. Lekin oddiy so'z emas, badiiy so'z" (1, 61).

Modern kayfiyatli she'rlarni kimdir izohlagandan ko'ra, uni har kimning o'zi o'qib — ko'ngil ko'zi bilan uqib olsagina, anglanishi va yechimining topilishi osonday nazarimizda. Demak, modernizm haqida qisqacha xulosalar quyidagilardan iborat:

— birinchidan: bir qarashda shakliy go'zallik (sarlavhasizlik, satrning kichik harflar bilan boshlanishi, tinish belgilarning yo'qligi, turli holatlarga, narsalarga o'xshatilib, rassomlik yo'li bilan ifodalangan she'rlar) o'ziga tortishi bilan mazmun orasidagi qiyoslashni, topilmalarni ilg'ash va shoirning nima demoqchilagini tushunish uchun ham yolg'izlikni ilg'ash o'quvchidan chuqur tafakkur talab qiladi;

— ikkinchidan, modern she'rni yechimning muammosi emas, muammoning yechimi deb qaralsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Ko'pchilik she'r o'quvchilar aytilayotgan so'z — she'rning aniq mazmuniga tushunmay, "modern she'r shunday jumlalardan tuzulsa, bu hammaning ham qo'lidan keladigan ish-ku", deb, qaralishini oldini olish maqsadida ijodkorlar ham tuyg'uning asl maqsadini tushuntirishda hamda she'rda aks etayotgan tuyg'ular ifodasini inobatga olishlari (axir shoir uchun uning birgina satr she'rini kimdir yod olib, aytib yurishidan ortiqroq baxt bormi!) lozim;

— uchinchidan, ba'zan she'r atay keltirilgan, yasalgan mavhumlik, ko'ngilga kelganning barisini — borisini yozish ham e'tirozlidir. Moderngacha bo'lgan she'riyatni tuyg'ular to'kkan bo'lsa (to'qilganlari bundan mustasno!), modern she'r his qilingach, unga tag qatlam, ya'ni ko'rinayotgan mazmundan yashirin mazmumni shakllantirish uchun ham aql va zehn ham zarurligi hamda bunday she'rlarda hissiyotning yarmi aql ekanligini unutmaslik kerak.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Адабиёт — инсонни кашф қилиш. Тўплам. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Хуршид Дўстмуҳаммад. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. — 188 б. — URL: https://n.ziyouz.com/books/adabiy_esdaliklar/Adabiyot%20-%20insonni%20kashf%20qilish.pdf
2. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. — Toshkent: Yangi asr avlod, 2002. — 199 b.
3. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. — Toshkent: Fan, 2005. — 184 b.
4. Hamdamov U. Ruhni uyg'otguvchi so'z. — Toshkent. Turon zamin ziyo. 2017. — 252 b.

5. Jahon adiblari adabiyot haqida. E.Xovardsxolm. Modernizm. — Toshkent. Ma’naviyat. 2010. — 367 b.
6. Жуманиёзова Н. Мустақиллик даври ўзбек шеъриятида услубий йўналишлар. // ф.ф.н. дисс. — Тошкент: 2009. — 75 б.
7. Мартинсон Х. В книге “Называвь вещи своими именами”. — Москва, 1986. — 421 с.
8. Mustaqillik davri adabiyoti. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. — 82 b.
9. Носиров А. Одил Ёқубов романлари поэтикаси: Фил. фан. д-ри. (DSc)...дисс. — Самарқанд, 2018. — 56 б.
10. Rahimjonov N. Davr va o‘zbek lirikasi. — Toshkent: Fan, 1979. — 259 b.
11. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. — Toshkent: Navoiy universiteti, 2018. — 475 b.
12. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug’ati. — Т. 2010. — 224 b.
13. Қодирий А. Кичик асарлар. — Тошкент: Faafur Fулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1969. — Б. 173.
14. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. — Тошкент: Фан, 2004. — 104 б.
15. Sabirova Z. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyatida falsafiy qarashlarning modernistic talqini. Magistrlik diss. 2020, — 86 b.
16. Sabirova Z. Globallashuv davri o‘zbek she’riyatining asosiy xususiyatlari. Monografiya. — Toshkent, 2023. — 132 b.
17. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: To‘plam, 1999. — 173 b.
18. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. — 183 b.
19. Yo‘ldashev Q. Modernizm: ildiz, mohiyat va belgilar. “Yoshlik” jurnali // 2014. 9-son.
20. Йўлдошев К. Фикр парвоз истайди. // Тафаккур журнали. — Тошкент: — 2015. — No. 3. — 4 b.
21. Yo‘ldasheva M. Yangilanish manguligi. — Toshkent: Adib, 2011. — 88 b.

References

1. *Adabijot — insonni kashf kilish. Tuplam* (Literature-the discovery of man. Vol.), Tashkent: yangi asr avlodi, 2016, 188 p, available at: https://n.ziyouz.com/books/adabiy_esdaliklar/Adabiyot%20-%20insonni%20kashf%20qilish.pdf
2. Hamdamov U., *Badiiy tafakkur tadriji* (Teaching artistic thinking), Tashkent: Yangi asr avlodi, 2002, 199 p.
3. Hamdamov U., *Yangilanish ehtiyoji* (The need for renewal), Tashkent: Fan, 2005, 184 p.
4. Hamdamov U., *Ruhni uygotguvchi suz* (Soul-awakening word), Tashkent. Turon zamin ziyo. 2017, 252 p.
5. *Jahon adiblari adabiyot haqida. E. Xovardsxolm. Modernizm* (World etibs about literature. E.Howardsholm. Modernism), Tashkent: Ma’naviyat, 2010, 367 p.
6. Zhumanijozova N., *Mustakillik davri uzbek she’rijatida ushubij junalishlar, f.f.n. diss.* (Stylistic directions in Uzbek poetry of the independence period, candidate’s thesis), Tashkent: 2009, 75 p.

7. Martinson H., *V knige "Nazyavt' veshhi svoimi imenami* (In the book "To call a spade a spade), Moskva, 1986, 421 p.
8. *Mustaqillik davri adabiyoti* (Literature of the independence period), Tashkent: Gafur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006, 82 p.
9. Nosirov A., *Odil Jokubov romanlari pojetikasi: Fil. fan. d-ri. (DSc)...diss* (Poetics of the novels of Adil Yakubov, Doctor's thesis), Samarkand, 2018, 56 p.
10. Rahimjonov N., *Davr va uzbek lirikasi* (Period and Uzbek lyrics), Tashkent: Fan, 1979, 259 p.
11. Quronov D., *Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari* (Fundamentals of the theory of literary studies), Toshkent: Navoiy universiteti, 2018, 475 p.
12. Quronov D., *Adabiyotshunoslik lugati* (Dictionary of literary studies), Tashkent, 2010, 224 p.
13. Kodirij A., *Kichik asarlar* (Small works), Toshkent: Gafur Gulom nomidagi badiij adabijot nashrijoti, 1969, 173 p.
14. Sarimsokov B., *Badijlik asoslari va mezonlari* (Fundamentals and criteria of artistry), Toshkent: Fan, 2004, 104 p.
15. Sabirova Z., *Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida falsafiy qarashlarning modernistic talqini. Magistrlik diss* (Modernist interpretation of philosophical views in Uzbek poetry of the independence period. Master's diss.), 2020, 86 p.
16. Sabirova Z., *Globallashuv davri uzbek she'riyatining asosiy xususiyatlari. Monografiya* (The era of globalization is the main features of Uzbek poetry. Monograph), Tashkent, 2023, 132 b.
17. XX asr uzbek adabiyoti tarixi, *To'plam* (History of Uzbek literature of the 20th century), Tashkent: 1999, 173 p.
18. Yuldashev K., *Yoniq suz* (Burn word), Tashkent: Yangi asr avlod, 2006, 183 p.
19. Yuldashev K., *Yoshlik jurnali* 2014, No. 9.
20. Juldoshev K., *Tafakkur zhurnali*, Tashkent, 2015, No. 3, 4 p.
21. Yuldasheva M., *Yangilanish manguligi* (Renewal eternity), Tashkent: Adib, 2011, 88 p.